

## MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA PEDAGOGIKA FANINING O’RNI VA AHAMIYATI

Andjon davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi  
3-kurs talabasi Sulaymonova Malikaxon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19453977>

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida pedagogika fanining o’rni, uning ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati hamda bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar;** Kalit so’zlar (o’zbek) maktabgacha ta’lim, pedagogika, tarbiya, ta’lim jarayoni, bola rivoji

**Annotation;** This article discusses the role of pedagogy in the preschool education system, its importance in the educational process, and its significance in the comprehensive development of a child’s personality. Modern pedagogical approaches based on the psychological and pedagogical characteristics of preschool children are also analyzed

**Keywords;** preschool education, pedagogy, upbringing, educational process, child development

**Аннотация;** В статье рассматривается роль педагогики в системе дошкольного образования, её значение в организации учебно - воспитательного процесса и развитии личности ребёнка. Также анализируются современные педагогические подходы с учётом психолого-педагогических особенностей детей дошкольного возраста

**Ключевые слова;** дошкольное образование, педагогика, воспитание, образовательный процесс, развитие ребёнка

### **Kirish**

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim bo’g’ini hisoblanadi. Aynan shu bolalarda dastlabki bilim, ko’nikma va malakalar shakllanadi, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlar rivojlanadi. Pedagogika fani esa ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, samarali metod va usullarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o’z oldiga aniq maqsad qo’yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun o’z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi. O’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajagiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim - tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim - tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib boorish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Shuningdek, mustaqillik sharoitida uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish maktabgacha ta’lim pedagogikasi fani oldiga qator vazifalarni qo’ymoqda: Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga karab belgilanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi — pedagogikaning maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o’rganuvchi sohasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi, bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafosat tarbiyasi va axloq fanlari bilan uzviy bog’liq. XIX-asrning 2-yarmida umumiy pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomondan yosh psixologiyasining rivojlanishi va limning alohida tarmog’i sifatida namoyon bo’lishi bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga, jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R.Ouven birinchi bo’lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g’oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanning maxsus tarmog’i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. XIX-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g’oyasi keng tarqaldi.

Pedagogika maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va baholashning nazariy hamda amaliy asoslarini belgilab beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi o’yin hisoblanganligi sababli pedagogik jarayonda o’yin texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining asosiy vazifasi — maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyutsion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O’zbekiston Respublikasining 1997-yilgi "Ta’lim to’g’risida" gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (Kadrlar\_tayyorlash\_milliy\_dasturi), o’zbek xalqining ma’naviy - axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg’or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika, psixologiya, falsafa, etika, estetik , tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tadqiqotlar kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, hujjatlarni o’rganish, bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soha bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni batafsil yoziladi va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik tajribada birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogic shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Pedagogik tajriba ehtiyotkorlik bilan obyektiv ravishda olib borilgandagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlash imkoniyati tug’iladi. Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir guruh bolalarni yaxshiroq o’rganish imkonini yaratadi, ta’lim - tarbiya jarayonida yo’l qo’yilgan xatolar aniqlanadi. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o’ziga xoslikni, atrof – muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya’ni bog’cha va alohida tarbiyachilarning reja va hisobotlarini o’rganish ham nazariy xulosalar chiqarilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tashkiliy ishlar haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Ushbu xulosalar o’z navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi. Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining muhim tadqiqot metodlidir. Bolalar faoliyati tahlili ularni shakllantirishda juda yaxshi natijalar beradi.

Zamonaviy pedagogic yondashuvlar bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini qo’llab - quvvatlash hamda ijodkorlikni rag’batlantirishga yo’naltirilgan.

Shuningdek, tarbiyachining kasbiy mahorati, pedagogik madaniyati va bolalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari pedagogika fanining muhim jihatlaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhimi sensor tarbiya tizimi nazariy asoslarining yaratilganligidir. Chunki sensor tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish jarayonlari uning sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishdan iborat.

Pedagogika fanining maktabgacha ta’limdagi asosiy vazifalaridan biri — bolani maktab ta’limiga puxta tayyorlash, unda ijobiy o‘qishga munosabat va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishdir.

O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi masalalari O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institut, Toshkent davlat pedagogika universiteti va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlab chiqiladi. Jumladan, 1996-2000-yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan maktabgacha ta’lim jarayonining mazmunini yangilashga yo‘naltirilgan bir qator tadqiqotlar, xususan, "Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan davlat talablari", "Uchinchi ming yillik bolasi" kabi tayanch dasturlarning yaratilishi diqqatga sazovor.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fani maktabgacha ta’lim tizimining ilmiy-metodik asosi bo‘lib, bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik bilimlarga ega bo‘lgan tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etib, jamiyat uchun yetuk avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Vygotskiy L.S. Bolalar rivojlanish psixologiyasi. – Moskva, 2018.